

## О‘ZBEK TILIDA SO‘ZLASHUVCHILAR NUTQIDA HURMAT KATEGORIYASI

*Samarqand davlat pedagogika instituti*  
*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs*  
*talabasi Ummatova Farangiz Dilmurod qizi.*  
*Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti*  
*kafedrasi assistenti Yusupov Sardor Shodi*  
*o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar nutqida hurmat kategoriyasining ifodalanish usullari, uning lingvistik hamda ijtimoiy xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanishi, ularning nutq madaniyati va ijtimoiy munosabatdagi o‘rni kiritiladi.

**Kalit so‘zlar.** hurmat kategoriyasi, nutq madaniyati, o‘zbek tili, grammatik kategoriya, murojaat shakllari, til va jamiyat.

Kishilik jamiyati mavjud ekan, insonlar o‘rtasida turli xil ijtimoiy munosabatlar bo‘ladi. Tabiiyki, bu munosabatlar, shubhasiz, ularning tilida o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tili ham bundan holi emas. Kishilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar turli ko‘rinishlarda tilning barcha sathlarida o‘z ifoda shakliga ega bo‘ladi. Bilamizki, har bir til o‘ziga xos nutq madaniyatiga ega bo‘lib, unda hurmat, ehtirom, yaqinlik kabi munosabatlar turli vositalar orqali ifodalanadi. O‘zbek tilida ham hurmat kategoriyasi muhim o‘rin tutadi. Bu kategoriya, asosan, murojaat shakllari, fe‘l shakllari, olmoshlar hamda maxsus leksik birliklar orqali ifodalanadi. Hurmat kategoriyasi nafaqat grammatik hodisa, balki milliy mentalitet va madaniyat bilan ham chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalqining kattalarga hurmat, kichiklarga izzat tamoyillari til tizimida ham o‘z aksini topgan.

1944-yil A.G‘ulomov o‘zbek tilida hurmat ma’nosining ifodalanishi haqida birinchi bo‘lib fikr yuritib, hurmat ma’nosi otning ko‘plik q‘shimchasi bilan ifodalanishi haqida batafsil to‘xtalib o‘tgan. O‘tgan asrning 50-60-yillarida hurmat ma’nosining aytim morfologik vositalar, jumladan, egalik affikslari vositasida ifodalanishi mumkinligi haqida F.Abdullayev, K.Nazarov, N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov kabi olimlar ham o‘z asarlarida qisqacha to‘xtalib o‘tgan. A.Hojiyev, S.Usmonov, Y.Tojiyev, R.Ikromova kabi olimlar esa hurmat ma’nosini ifodalovchi ayrim sintetik vositalarni modal ma’no ifodalovchi vositalar qatorida sanab, “modal forma”, “subyektiv baho formasi”, “kichraytirish erkalash vositalari” kabi atamalar bilan atashgan, to‘g‘riroq hurmatni ifodalovchi morfologik vositalarni boshqa kategoriya vositalari bilan bog‘liq holda o‘rganishgan. [3:15-b.]

### **Hurmat kategoriyasining lingvistik mohiyati.**

Hurmat kategoriyasi nutqda suhbatdoshga nisbatan ehtirom yoki ijtimoiy masofa ifodalshga xizmat qiladi. O‘zbek tilida bu kategoriya bir nechta vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Fe‘l shakllari orqali 1973-yilda Sh.Rahmatullayev o‘zbek tilshunosligiga “hurmat formasi” tushunchasini kiritdi: hurmat ifodalovchi -lar affiksininig ko‘plik ma’no bildiruvchi -lar affiksidan farqlanishini ta’kidlab ko‘rsatadi. Sh.Rahmatullayevning fikricha, -lar omonim qo‘shimcha hisoblanadi, lekin omonim qo‘shimchalarning umumiyliigi modal ma’noda ekanligi emas, balki ular o‘rtasidagi grammatik farqqa asoslanadi. Buni quyidagicha oddiy tasvirlash mumkin:

1. Qalamlarim - bunda aynan ko‘plik ma’nosida. Hurmat ma’nosiga tegishlilik yo‘q.
2. Onamlar- bunda III shaxs birlikka hurmat ma’nosi. Ko‘plik ma’nosiga esa betaraflik mavjud. [4:83-b.]

Hurmatning ma’no xususiyati esa boshqa kesimlik ma’nolari - shaxs-son, zamon, mayillardan farq qilishi ko‘rsatiladi: hurmat II va III shaxslar uchun mushtarak hisoblanadi. Otangiz. (otanglar) - otaga hurmat, akangiz (akanglar) - akaga hurmat, onalari 90 bahorni ko‘ribdilar - onaga hurmat, buvimlar keldilar - buviga hurmat (III shaxs birliklar hurmat) buvilarim keldilar II shaxs ko‘plik – “2 ta buvi keldi”.

O'zbek tilida murojaat shakllari ham hurmat kategoriyasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan: aka, opa, ota, ustoz

Bu birliklar suhbatdoshning yoshi, mavqeyi yoki ijtimoiy rolini hisobga olib qo'llanadi.

### **Leksik vositalar**

Ba'zi so'zlar hurmat ma'nosini kuchaytiradi: rahmat, marhamat, iltimos. Tashakkur.

Hurmat kategoriyasi vositalarining qo'llanilishida ijtimoiy omil muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy omilning asosiy belgisi nutq jarayoni, imkoniyat, vaziyat va vaqt kabilardir.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida hurmat ma'nosi – kategoriyasi, ya'ni kategoriya hosil qiluvchi ma'no deb qaralmoqda. 1990-yilda G'.Zikrillayev tomonidan hurmat dastlab fe'lga xos kategoriya sifatida o'rganib, uning semantik- funksional xususiyat, ya'ni mazmuni, qo'shilishi va yasalishi tahlil qilinadi. G'.Zikrillayev "II va III shaxsda subyektning kommunikativ roli hamda miqdorini ko'rsatuvchi qo'shimcha ayni paytda hurmat ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shu paytgacha hurmat kategoriyasi ajratilmaganidan ular shaxs-son qo'shimchasi deb kelinar edi" deya ta'kidlaydi. Ammo G'.Zikrillayev hurmat ma'nosini faqatgina fe'llarga xos shaxs-son kategoriyalari doirasida o'rganish bilan cheklangan.

### **Olmoshlar orqali ifodalanishi**

O'zbek tilida hurmat kategoriyasi, eng avvalo, shaxs olmoshlari orqali ifodalanadi. 1991-yilda hurmat ma'nosining olmoshlar doirasida ifodalanish xususiyatlari haqida B.Yusupov o'zining «Местоимение в староузбекском литературном языке» monografiyasida qimmatli fikrlarini berib o'tadi. Bundan tashqari, hurmat semasining olmoshlari bilan bog'liq jihatlari haqida 1969-yilda K.E.Maytinskaya turli tizimdagi tillarda olmoshlarning qo'llanilishi haqida fikr yuritgan.

1980-yilda M.S.Uzina esa fors tilida ayrim olmoshlarning hurmat ifodalashi haqida to'xtalgan. 2003-yilda yozilgan D.Hakimovning "siz va sen olmoshlarining

leksik-semantik xususiyatlari” maqolasi o‘zbek tilida hurmat ma’nosining olmoshlar vositasida ifodalanishi haqidagi mavjud ko‘plab qarashlarni to‘ldirib o‘tadi. [5:27-b.]

O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi va turk tilida hurmat kategoriyasini solishtirib ko‘radigan bo‘lsak, turklarda hurmat kategoriyasi til va madaniyatda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, asosan “siz” lash (ko‘plik shakli), qarindoshlik atamaları (amaki, xola, aka) hamda mansab/unvonlar orqali ifodalanadi. Muloqotda kattalarga va notanishlarga nisbatan muloyimlik, bosh bilan ishora qilish, qo‘l berib ko‘rishish muhim hurmat belgisi hisoblanadi. Shuningdek ismga yoki qarindoshlik atamasiga nisbatan bey (janob), hanım (xonim) so‘zlarini qo‘llash (masalan Ayşe hanım, Ahmet bey). Turklarda yoshi ulug‘larga, oila boshlig‘lariga yoki jamoatdagi hurmatli shaxslarga yuksak hurmat ko‘rsatiladi. Ko‘rishganda qo‘lni o‘pib peshonaga qo‘yish an‘anasi (ayniqsa, bayramlarda) saqlanib qolingan. Muloqot davomida boshini biroz egish, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salomlashish samimiy hurmat va kamtarlik belgisi sifatida qo‘llaniladi.

Hurmat kategoriyasi nafaqat o‘zbek, turk xalqlarida emas, balki butun turkiy xalqlarning an‘anaviy qadriyatlari va ijtimoiy ierarxiyasida chuqur o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida hurmat kategoriyasi til tizimining muhim qismi hisoblanadi. U grammatik, leksik va pragmatik vositalar orqali ifodalanadi. Hurmat kategoriyasi nafaqat til hodisasi, balki o‘zbek xalqining milliy madaniyati va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim omildir. Shu sababli uni o‘rganish tilshunoslikda ham nutq madaniyatida taraqqiyotida ham ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. N.Mahmudov. Til va nutq madaniyati. Toshkent . O‘qituvchi. 2003. 234 b.
2. D.Shodmonov, M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent O‘qituvchi. 1980. 208 b.
3. H.Hojiyeva. O‘zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlari. Filologiya fanlar nomzodi. Samarqand, 2001. 126 b.

4. Sh.Rahmatullayev. Hurmat formasi. O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent. 1973.  
142 b.

5. G‘.Zikrillayev. Fe’ning shaxs-son va hurmat kategoriyasi sistemasi.  
Toshkent. 1990. 112 b.